



CHO‘LPONNING “ZAMONA XOTINI” ASARIDAGI AYRIM MULOHAZALAR

Norqobilova Oydin,

Toshkent davlat o‘zbek tili adabiyoti universiteti 1-kurs magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207322>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning “Zamona xotini” pyesasi o‘tgan asr boshlaridagi o‘zbek jamiyatidagi ayollarning ahvoli, ular duch kelgan ijtimoiy va ma‘naviy muammolarni yoritishga bag‘ishlangan. Asar o‘z davri uchun dolzarb bo‘lgan ayollar erkinligi, oilaviy hayot, an‘analar va zamonaviylik o‘rtasidagi ziddiyatlar va ruhiy kechinmalarni aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: “Zamona xotini”, ijtimoiy va ma‘naviy muammolar, ayollar erkinligi, ziddiyatlar, ruhiy kechinma.

Kirish. Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon XX asr o‘zbek adabiyotining eng mashhur namoyandalaridan biri hisoblanadi. Uning hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotimizning eng yorqin sahifalaridan birini tashkil qiladi. U badiiy ijodning deyarli hamma turi bilan faol shug‘ullandi. Jumladan, she‘r, hikoya, roman, drama, tanqid, tarjima – hammasida ijod etdi. Lekin, birinchi navbatda, yangi o‘zbek she‘riyatining asoschisi bo‘lib tarixga kirdi. Abdulhamid Cho‘lpon o‘zbek realistik prozasining shakllanish davrida samarali ijod qilib, uning taraqqiyotiga sezilarli ulush qo‘shgan san‘atkoridir. Shu bois Cho‘lpon asarlarining badiiy qiymatini, adibning milliy badiiy tafakkurimiz tadrijida tutgan o‘rnini belgilash uchun ularning poetikasini tadqiq etish muhimdir. Cho‘lpon pyesasi badiiy yuksaklik, uning zamoni ijtimoiy-siyosiy, madaniy muammolarini chuqur anglashida, shuningdek, psixologik tasvirlashdagi mahoratida namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Istiqlol yillarida Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon asarlarining nashr etilishi yangi tadqiqotlar uchun yo‘l ochib berdi.

O.Sharafiddinov, N.Karimov, S.Mamajonov, N.Vladimirova, H.Boltaboyev, B.Do‘stqoraev, D.Quronov, Z.Eshonova, N.Yo‘ldoshev, U.Sultonov, M.Yo‘ldoshevlar Cho‘lpon ijodiy merosining ayrim qirralarini ilmiy tadqiqotlariga obyekt qilib oldilar. Cho‘lpon shaxsiyati, badiiy merosi, xususan, nasrining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini o‘rgangan M.Qo‘shjonov, S.Mamajonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, N.Vladimirova, B.Do‘stqorayev, A.Rahimov, R.Otayev, B.Karimov, X.Lutfiddinova va boshqa turli avlodga mansub adabiyotshunoslarimiz adib ijodiga ilmiy baho berishgan. 20-yillar matbuoti Cho‘lpon o‘nga yaqin pyesa yozganidan



xabar beradi. Bularning talayginasi sahnalashtirilgan bo‘lsa-da, negadir bir nechtasigina saqlanib qolgan. To‘g‘ri, “Yorqinoy”, nashr etilganligi uchun saqlanib qolgan. Yan tomonidan yozilgan va Cho‘lpon o‘zbekchallashtirgan, qayta ishlagan “Hujum” pyesasi ham saqlanib qolgan. “O‘rtoq Qarshiboyev” komediyasi sahnalashtirilganda matbuotda qizg‘in munozaralarga sabab bo‘lgan, afsuski, u ham haligacha topilgani yo‘q. Deyarli hech kimga ma‘lum bo‘lmagan “Zamona xotini” fojeasining topilishi kutilmagan voqea bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada Cho‘lpon o‘zining badiiy asarlarida ijtimoiy va ruhiy masalalarni yoritib, o‘z zamonining o‘zgaruvchan voqealariga munosabat bildirgan. Uning pyesasi, asosan, zamonaviylikni, ichki dunyoqarashlarni va insonning hayotdagi o‘rnini chuqur tahlil qiladi. Pyesadagi o‘ziga xos qarashlar ijtimoiy-siyosiy hamda ruhiy kechinmalar tahlili orqali ochiqqlangan.

Tahlil va natijalar. Cho‘lpon ko‘plab pyesalar yozishi tabiiy edi. Chunki u jahon dramaturgiyasining o‘nlab shoh asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan va umuman, sahna san‘atini teran tushungan edi. So‘ngra, dramaturgiya zamon holatini tahlil etishda eng qulay hisoblanardi. Bugunga qadar qo‘limizdagi yagona manba pyesaning ilk bor “Sharq yulduzi” jurnalining 1992-yil 10-sonida bosilgan nashr varianti edi. Ikkinchi nashr varianti Cho‘lpon asarlari 4 jildligidan joy olgan bo‘lib “Akademnashr”, 2016), jurnal variantining ayni o‘zi (olimlarning og‘ir mehnatini qadrlagan holda aytish mumkinki, jurnal variantida yo‘l qo‘yilgan xatolar kitobda ham takrorlangan). Pyesa jurnalning “Meros” ruknida joriy yozuvda muallifning “Shunigina deyman...” sarlavhali so‘zboshisi bilan e‘lon qilingan. Pyesa Mumtoz Muhamedov, Komil Yashin, Salohiddin Mamajonov tomonidan nashrga tayyorlangan. Salohiddin Mamajonov asar tarixi, topilishi va nashrga tayyorlanish jarayoni haqida tadqiqiy maqola ham havola qilgan. Unda olim asar Mumtoz Muhamedovning qo‘lida pyesa yozilgan 1928-yildan beri yashirincha saqlangani, bundan faqat Komil Yashin xabardor bo‘lgani, 1992-yilga kelib, mustaqillik sharofati bilan ommaga oshkor etilgani haqida yozadi. Mumtoz Muhamedovning Salohiddin Mamajonovga bayon qilib berishicha, 1928-yilda Leningradda dramaturgiya masalalariga bag‘ishlangan yig‘in bo‘lib o‘tadi va unda o‘zbek ziyolilaridan Cho‘lpon, Yashin, Ziyoy Said va Mumtoz Muhamedovning o‘zi ham ishtirok etadi. Shu orada Toshkentdan Cho‘lponga qo‘ng‘iroq qilishadi, uni NKVD so‘rab-surishtirayotgan edi. Mumtoz Muhamedov bilan birgalikda asarni majlislar zalidan topadi va shu bilan pyesa Mumtoz Muhamedovning qo‘lida qolib ketadi. Olimlar

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Sotti Husayn, Salohiddin Mamajonov, Sirojiddin Ahmedov umumiy syujet chizig‘i, ishtirokchilar va ularning nomlaridagi bir xillikka tayangan holda asarning sahna varianti ham mavjudligi, u “Mushtumzor deya atalishi, buni Mannon Uyg‘urning o‘zi sahnabop qilib tayyorlagan bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi. Biz Sirojiddin Ahmedov bilan shaxsan so‘zlashganimizda ham olim bu fikrni tasdiqladi. Olim fikricha, san’atshunoslik institutida saqlanayotgan Cho‘lponning “Mushtumzo‘r” nomli pyesasi bir betlik bayoni “Zamona xotini”ga to‘la mos keladi. Shuning-dek, “O‘zbek milliy akademik drama teatri tarixi” kitobi (Toshkent, 2003) mualliflari keltirgan mazkur teatr repertuarida 1928-yilning 20-oktyabrida Cho‘lponning “Mushtumzor” pyesasi sahnalashtirilgani, unga M. Uyg‘ur va M. Muhamedov rejissyorlik qilgani haqida ma’lumot berilgan. Teatr repertuariga e’tibor bilan qaralsa, keyin ham Cho‘lpon tarjimasida ko‘plab asarlar sahnalashtirilgan, ammo Cho‘lponning biror mualliflik asari sahnaga olib chiqilmagan. Olim Sirojiddin Ahmedov fikricha, pyesa nomining “Mushtumzo‘r” deya o‘zgartirilishi ham Cho‘lponga bo‘lgan noxolis munosabat ifodasi edi. Cho‘lpon o‘zbek ayolining ham haqdor ekanligi, uning ham jamiyatning umum ishiga daxldor ekanligini ko‘rsatib berishni istagan, zotan asarning asosida mana shu fikr yotadi. Asar nomini “Mushtumzo‘r” deya o‘zgartirish orqali esa asosiy fikrdan chalg‘itishga urinish seziladi. Avvalo, Cho‘lpon tomonidan yozilgan so‘zboshi xususida. So‘zboshi Cho‘lponning o‘z qo‘li bilan yozilgan bo‘lib, dastxat buni tasdiqlaydi. So‘z so‘ngida Cho‘lpon o‘z imzosini qo‘ygan, so‘ng “1928-yil 14-may, Samarqand” deya vaqt va manzilni ko‘rsatgan. Jurnalda bosilgan so‘zboshi fotonusxasi va bizning qo‘limizdagi so‘zboshi ayni bir nusxa, matn va matn hoshiyasidagi belgilar ham bir xil. Cho‘lpon asarni 1928-yil 13-iyunda Samarqaddaligida yozib tamomlagan. So‘zboshini bo‘lsa bir oy avval, 14-may sana-ida qog‘ozga tushirgan. Cho‘lponning o‘zi asarni uch qayta ishlaganini ma’lum qiladi: birinchi varianti Maskovda vaqti ikki pardali qilib. “Zamona xotini” nomi bilan yozilgan; ikkinchi varianti biroz kengaytirilgan va zamona, mavjud turmush tarziga moslangan; unda na kulgi va na fojia elementlari bo‘rtib ko‘rinmaganligi uchun muallif asarni “pyesa” deb atagan; uchinchi varianti. Markaziy davlat turuppasi asarni sahnalashtirish vazifasini Mannon Uyg‘urga yuklar ekan, Cho‘lpon Uyg‘urning talabi bilan “ko‘prak kulgidan iborat bo‘lg‘on burungi holidan chiqarib, fojiaga aylantir”gan. Cho‘lpon o‘zi ishlab chiqqan uchinchi variantni mukammal nusxa sifatida ko‘rsatadi va shu bilan “bas qildiq” deydi. Ehtimol, Mannon Uyg‘ur shu uchinchi variant asosida asarning sahnaviy talqinini

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



yaratgan va “Mushtumzor” nomi bilan 1928-yil 20-oktyabrda tomoshabinlarga taqdim etgandir.

Asar halollik, mehnat, inson sha'nini avaylash kabi azaliy qadriyatlar ustiga qurilgan. Shuningdek, bolasini bag'riga bosgancha, yangi ijtimoiy munosabatlar ichiga qisinib-qimtinib kirib borayotgan o'zbek ayoli haqida so'zlab, to'g'rirog'i, ko'rsatib beradi. Asarda zamona xotin qanday bo'lish, ularga erkaklar tomonidan berilgan tazyiqlar yoki erksizlik masalalari haqida yoritib o'tiladi. Masalan, asar qahramonlari Sharofat, Rahima opa, Rustam, Paranjili xotun, Muallim Abdilahadjon, Qumri va boshqalar. Asardagi qahramonlar bir-biridan o'z-fikr dunyoqarashi va ma'rifatidan farq qiladi. Sharofat yosh, chiroyli va sevgini qadrlaydigan sodda qiz. Faqat erki o'z qo'lida emas, chunki otasi Rustam uni zo'rlab uzatmoqchi bir qimorbozning o'g'liga, lekin bu niyatini amalga oshira olmaydi. Rahima opa asarni gultoji. Go'yoki asardagi barcha voqealar shu qahramon bilan bog'liq. Bu ayolda ishiga sodiq, mehribon ona, sabr-bardoshli, o'z navbatida, zamonaning o'qimishli va mafkuraga xizmat qiladigan ayol obrazi deb hisoblayman. Nega deganda, asar oxirida eri Rustam ijroqum raisi, Rahima opa erining qilgan barcha fitna-fasodlari, qotilligi uchun militsiya xodimi chaqirib, uni qo'llarini bog'lab topshiradi. Ayni shu o'rinda, *Rahima: bog'la muning qo'llarini! (Rustam indamay yerga qarab turib beradi, militsiya bog'laydi.) Sening qo'ling, nomard! Shu bilan uch marta menga intilding, eplay olmading! Mast, o'zini bilmagan Zokirjonni bo'lsa bo'gozlashqa yarading! Jo'nataman! Qancha qiynalsam ham jo'nataman!* Ko'rinib turibdiki, ayolning naqadar ichki iztiroblari dardlarga to'la, uning ruhiyatida qo'rquvlik, yana boshqa tomondan dovyuraklik va o'z mafkurasiga sodiqlik bor. Rustam obrazi yolg'onchi, farzandini kelajagini o'ylamaydigan qallob ota! Bo'lmasa o'z qizini qimorbozning o'g'liga beradimi, yoki unga agar sen unga tegmasang, *“ko'zingni oldida onangni so'yib tashlayman! Undan keyin o'zingni Jo'ra bangiga beraman. Allaqanday muallimlar bilan duvol oshib gaplashaturg'on qiz bangilarga yarashadi, bangilarga!.. Bildingmi!.. Ha!..”* deb unga do'q-po'pisa qilib gapiradi. Mana otani ruhiyatida oz bo'lsa-da, mehr-muhabbatni yo'qliga, faqat uning qalbida qahr-g'azab ufurib turgandek tuyuladi. Paranjili xotun (Jahonbu) o'ta makkor va hiylakor, irim-sirimlarga mukkasidan ketgan, hasadgo'y va kundoshini oilasini tinch qo'ymaydigan ayol. Kundoshini uyiga kelib, hoy kim bor, *“Xudoyo oshqa un tilab keldik! Hech kim bormi!”* Deydi va hech kim chiqmagandan so'ng *“Yo bismillo! (Yonidan pichoq olib yerni kavlay boshlaydi. Bir qo'lida bir tumorcha.) ilohim, yostug'i qurib ketsin bu kofirning!..”* deb shunaqa qilgan joyidan uni poylashib turgan Sharofat va Jo'ra



ushlab oladi, xotinlarga voqeani aytib beradi. Kundoshlar bir-birini ko‘rganda Rahima opa hushidan ketadi, Jahonbu esa sekin ketadi, hech kim unga e‘tibor bermaydi. Muallim Abdilohad yosh, fikrlari baquvvat, muammolar bo‘lganda oddiy odamlar bilan kelisha oladigan obraz. *“Shunday, o‘rtoqlar! Bizda ijroqum degan, hukumat degan narsa yo‘q, edi. Bizda faqat qimorbozlar, boshkesarlar, yeri ko‘p boylar, bo‘rdoq boybachachalar, xotin-qiz dushmanlari, ozodliq yovlari bor edilar... ular bir to‘da bo‘lib uyushib...”* muallimni haqiqatan ko‘nglidagi gaplarini gapira oladigan qo‘rqmas-shijoatli o‘z davrining o‘qimishli qahramonlaridan biridir. Qumri soda, mehribon, o‘z taqdiriga rozi, o‘gay ona qo‘lida tarbiya topgan qiz. O‘gay onasi qarindoshi yoshi ko‘p joylarga borib qolgan odamga bermoqchi, lekin u cholning xotini hayot ya‘ni, kasal o‘lgandan so‘ng bermoqchi, ularning farzandlari yo‘q, bu holatda Qumri taqdiriga rozi. Ya‘ni erki o‘zining qo‘lida emas, uning ham qalbi sevgiga oshno, yaxshi ko‘rgani bor, faqat qo‘rqoqlikdan bu vaziyatdan chiqib keta olmaydi. Shuning uchun taqdirga rozi. Meni bir narsa e‘tiborimni tortdi bu asardan, bu ham bo‘lsa yetilgan qizlar majlisi, bunda turfa qizlarning taqdiri va ularning ko‘nglidagi dardlarga to‘lib ketgan gapxonalari, o‘sha qalbidagi gaplari uchun o‘zlarining suhbatlarini bemalol sirlasha olib, qo‘shiqlar aytib, o‘z dardlarini shu kuy va qo‘shiqlar orqali orom oldirib, ruhiyatini yengillashtiradi, bu naqadar tinch joy, qalbni ruhlantirishga, asosan, bulardagi ayni dard sevgi.

Xulosa qilganda, “Zamona xotini” asari xotin-qizlarning muammosi, erk masalasi, ayol erkinligi, inson huquqlari va jamiyatdagi adolatsizlik mavzusini yorituvchi va o‘tgan asr boshlaridagi o‘zbek jamiyatidagi ayollarning ahvoli, ular duch kelgan ijtimoiy va ma‘naviy muammolarni yoritishga bag‘ishlangan. Unda hayot-mamot kurashi ham, shirin sevgi onlari ham ig‘vo-fitna ham, kundoshlik azob va nayranglari ham, iflos-ishrat manzaralari ham, qo‘shiq-xushchaqchqlik paytlari ham, hazil-mazax sahnalari ham, iztirobli yoki keskin munozarali fasllar ham bor, yana qancha-qancha qiziqarli sahnalar, yo‘llar, usullar bor. Bularning hammasi “ezilgan yurti, sho‘rlik dehqonni”, “ozodlik yovlarini”, “xotinlar ham odam ekanlar” degan haqiqatni ko‘rsatishga xizmat etadi. Cho‘lpon o‘z davrida bu masalalarni ko‘tarib chiqqan. Asar hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib, ayollarning huquqlari va jamiyatdagi o‘rni haqida o‘ylashga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Куронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Т.: Шарк, 2004. Б.359.
2. Cho‘lpon. Zamona xotini. -Toshkent: 2024. B.142.
3. “Sharq yulduzi” jurnalining 1992-yil 10-sonidan olindi.